

**“O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI.
O‘TMISHGA NAZAR.”**

Jo‘rayeva Nodiraxon Qurbonovna

Jahon va mintaqa iqtisodiyoti kafedrası mudiri

A‘zamjonova Dilnavozxon Abdusattor qizi

*Ilmiy tadqiqotchi Inson resurslarini boshqarish
yo‘nalishi, 24.135-gruh talabasi*

Kalit so‘zlar: *Yurtimizning siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy sohasidagi islohotlar. Ijtimoiy himoya, aholiga ko‘mak.*

O‘zbekistonning so‘ngi o‘n yillik tarixida amalga oshirilgan siyosiy va iqtisodiy islohotlar mamlakatni global maydonga yangi mavqega ko‘tarishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Mustaqillikdan keyin o‘tgan davrda O‘zbekistonning rivijlanish yo‘li 2016 yildan keyin sezilarli darajada katta o‘zgarishlarni boshidan kechirdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari va davlatimizning yangi strategik harakatlari bilan mamlakatimiz yanada gullab yashnashiga olib keldi. O‘zbekistonning eng yangi tarixida o‘zgarishlar, ijtimoiy taraqqiyot va kelajakda amalga oshirilishi kutilayotgan islohotlar talaygina.

Mustaqillikdan keying qadam. 1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida o‘z mustaqilligini e‘lon qilgandan keyin, mamlakat uchun yangi tarixiy davr boshlandi. Shu bilan birga, mustaqillik davrida O‘zbekiston o‘zining iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy tizimini shakllantirishda ko‘plab qiyinchiliklarga duch keldi. SSSR ittifoqi tarkibida bo‘lgan O‘zbekistonning bozor iqtisodiyot tizimiga o‘tishi, avvalo, iqtisodiy inqirozga olib keldi. O‘sha davrda mamlakatimizda xususiy sektorning shakllanmagani, innovatsiya va investitsiyalarning kamligi, davlat boshqaruving markazlashtirilgani buning asosiy sabablaridan biridir. Shunga qaramasdan bu davrda ham O‘zbekistonning o‘ziga xos madaniyati va an‘analarini saqlab qolish, mamlakatning geosiyosiy maydondagi o‘rnini mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilgan.

2016-yildan keyin O‘zbekistonni rivojlantirish Shavkat Mirziyoyev 2016-yilda Prezidentlikka saylanishi bilan O‘zbekiston Tarixida yangi saxifa ochildi. Prezidentimiz boshchiligida davlat siyosati o‘gartirildi. Iqtisodiyotda diversifikatsiya, korrupsiyaga qarshi kurash, erkin bozorni rivojlantirish, iqtisodiy faoliyatda erkinlik, erkin bozorni rivojlantirish va huquqiy islohotlarni targ‘ib qilish boshlandi. Bundan tashqari ijtimoiy sohaga ham bir qator yangi o‘zgartirishlar kiritildi. Respublikamiz uchun ijtimoiy himoyalash tizimini tanlab olishda xalqning uzoq yillar mobaynida shakllangan manaviy axloqiy qadriyatlari, turmush tarzi va dunyoqarash xususiyatlari hisobga olinadi. Bundan tashqari ta‘lim sohasida ham aniq maqsadli umummilliy ijtimoiy dasturlar amalga oshirilib, o‘tgan yil davomida salmoqli natijalar qo‘lga kiritildi. Umumiy qilib aytganda O‘zbekiston o‘zining iqtisodiy, ijtimoiy hamda siyosiy tizimlariga innovatsiya va investitsiyalar qilishda yangi bosqichga o‘tdi.

Siyosiy sohadagi islohotlarni ko'radigan bo'lsak, Prezident Shavkat Mirziyoyevning siyosatida inson huquqlari matbuot erkinligi va siyosiy raqobatni rivojlantirishga katta ahamiyat berildi. 2017-yilda amalga oshirilgan amnitsiya dasturi, jurnalistlar va siyosat vakillariga nisbatan erkinlikning kengaytirilishi bularga yorqin misol bo'la oladi. Mamlakatimiz tarixidagi eng yangi yangiliklardan biri Mamlakatimizda o'tkazilgan referendumdir. Bu referendum mamlakatimizning aholisi uchun tashkil qilingan. Bu referendumda har bir aholi yopiq tarzda o'zi munosib deb bilgan qarorlarni chiqaradi. Referendumda har bir o'zbekiston aholisi befarqlik qilmasdan qatnashishi zarurdir. Shu kabi siyosiy vaziyatlar mamlakatimizning siyosiy tomonlama yuksalishiga ko'mak beradi.

Iqtisodiy sohadagi islohotlar. Davlat iqtisodiyotini bozor mexanizmlari bilan boshqarish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Mamlakatimizning iqtisodiy siyosatidagi eng katta yangiliklaridan biri – Liberalizatsiya jarayoni bo'ldi. Xususan so'ngi yillarida valyuta kursining erkinlashuvi, soliqlarni yengillashtirish va turli to'siqlarning kamaytirilishi iqtisodiyotning rivojlanishiga imkon yaratdi.

Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar.

Yangi hukumat tomonidan ta'lim sohasidagi islohotlar va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Yangi maktablar va universitetlar qurilishi, o'qituvchi va shifokorlarni malakasini oshirishga qaratilgan dasturlar, xotin-qizlarga ta'lim sohasida moddiy ko'mak berish, ularni imkoniyatlarini kengaytirish, biz yoshlarni eng yangi zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish kabi tashabbuslar aholiga tadbiq etildi.

Mamlakatimizning kelajak uchun ko'zda tutayotgan islohotlari. Birinchi navbatda o'z tovarlari bilan Jahon bozoriga kirib borish, Iqtisodiy va siyosiy sohalarda dunyo mamlakatlari bilan hamkorlik qilish, har bir sohalarga eng zamonaviy texnologiyalar bilan biraglikda xorijiy investitsiya hamda dasturlarni olib kirish, dunyo miqiyosida iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va O'zbekistonni rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiritish.

O'zbekistonning eng yangi tarixi, o'zgarishlarga ochiqqligi, iqtisodiy rivojlanish yo'lidagi sa'y-harakatlari va siyosiy islohotlar orqali mustahkamlanmoqda. O'zbekistonning XXI asrga qadam qo'yishi mustaqillikning yuksak natijalaridan biridir. Kelajakd, mamlakatning yangi davrga intilishi va xalqaro aloqalarni yanada rivojlantirishishi, Mamlakatimizni yanada kuchli davlatga aylantirishi kutilmoqda. Demakki, mamlakatimiz istiqbolida har birimizning munosib vazifamiz, yorug' kelajagimiz bor. Shu ulug'vor vazifani ado etishda davlatimiz rahbari olib borayotgan islohotlarga qanot bo'lish-eng oily maqsadimizdir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kun.uz sayti,
2. Uz report telekanali.